

Xondamir ilmiy – merosida tabiiy-ilmiy bilimlarning o‘rni va roli

II kurs magistrant Boymatov Hamza

+998909461461

XIV – XV asrlar Movarounnahr va Xurosonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy tarixida ulkan zarhal bo‘yoqlar bilan bezaldi. Sababi shundan iborat ediki, bu hududning Amir Temur va uning avlodlari (Shohrux, Ulug‘bek, Abu Said va Sulton Husayn Boyqaro va boshqalar) tomonidan idora etilgani, ilm-fan va madaniyat sohasiga zalvorli hissa qo‘shganligi bilan belgilanadi. Bu davrda juda ko‘p olim-u fuzalolar, shoirlar va boshqa ilm-fan namoyandalari yetishib chiqqan va shuning bilan birgalikda ular o‘z asarlari orqali dunyoga tanilganlar. Shunday tarixchi, geograf, shoir va qisqa qilib aytganda, qomusiy olimlardan biri Xoja G‘iyosiddin Humomiddin Muhammad Xondamir hisoblanadi. Xondamirning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ko‘p tarixchilar¹ning ilmiy risolalari va asarlar va boshqa ko‘plab ilmiy to‘plamlarda ta’kidlab o‘tilgan. U XV – XVI asr boshlarida

¹Гиёсиддин бинни Хумомиддин Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. Нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. –Тошкент. Ўздавнашр. 1941; Гиёсиддин бинни Хумомиддин Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. (Яхши хулқлар) Форсчадан М.Фахриддинов, П.Шамсиев таржимаси. Сўз боши – Иззат Султон. Тошкент. Бадиий адабиёт. 1967. – Б. 136; Б.Аҳмедов. Хондамир. Гулистон. – 1976. – 6 сон. – Б. 26; Б.Аҳмедов. Хондамир. Т.: Фан. –1965. – Б. 54; М.Хасаний., Каримова. С., Навоий даври табобати. Т.: Ибн Сино, 1991. – Б. 125; Б.Аҳмедов, Вопросы обоснования геометрии на средневековом Востоке: Авто.Рэф.дис. к.физ.мат. наук. Т., 1962. – С. 24; Б.Аҳмедов Геометрический трактат Шамсиддин Самарканди (XIII в.)Сер.физ-мат.наук. Т., 1969. – С. 1-7; Бартольд В.В.,Улугбек и его времени. // Соч. Т. VIII –М., 1973. – С.74-97; Каримов У.И., Словарь медицинских терминов Абу Мансура Ал-Кумри// Материалы по истории культуры и истории науки народов Средней Азии. – Ташкент. – С.112-115; Матвиевская Г.П., Математические и астрономические рукописи Института востоковедения АН РУз.// Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем Востоке. – Ташкент, 1972. – С. 169-200; Матвиевская Г.П., Тиллашев Х, Математические и астрономические рукописи учёных Средней Азии. X – XVIII вв. Т., Фан. – С. 147; Миклухо-Маклай Н.Д., Хондамир и «Записки» Бабура. // Тюрколог. Исслед. – М. – Л. 1963. – С. 237-249; Юсупова Д., Вопросы градостроительства в трудах Хондамира//Позднефеодальный город Средней Азии. – Ташкент., 1990. – С.157-162; Юсупова Д., Изучение «Мақорим ул-ахлоқ» в СССР и за рубежом. // Бартольдовские чтения 1990: Тез.док.сооб. – М. 1990. – С. 73-74; Юсупова Д.«Хуласат ул-ахбар» Гийас Ад-Дина Хондамира как источник по истории культуры Мавераннахра и Хорасана XV – XVI вв. // Бартольдовские чтения 1987: Тез.док.сооб. – М. 1987. – С. 173-184; Абдалгаффар Байани. Мукаддима, примечания, исправления// Источники. Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. Кабулс. Изд.М. – Л. 1963.; Хидайат Хусейн., Предисловие, примечания// Источники. Хондамир. Канун-иХумайуни. М. – Л. 1963; Beveridge. De. Bruijn. Khwandamir. – Н. Beveridge. – J.T.P, De. Bruijn. Khwandamir. TheEncyclopediaofIslam. NewEdition. V-IV . Leiden, 1977. – P. 1020-1022;Gandjei., Introduction, Index// Хондамир. Мақоримул-ахлоқ. Кембриж. Изд. Хондамир.Канун-иХумайуни.Анг.пер. (Qanuni Humavuni also known as Humavun nama) of Khwandamir. Translated with explanatory notes by Baini Prasha. Calcutta. 1940. – P. 92; Хондамир. Мақоримул-ахлоқ. Кембриж. Изд. Khwandamir. Makarimul-akhlaq. Fac, Ed. T. Qandjei. (Cambridge) Trusties of the E.T.W. Gibb Memorial, 1979. – L.165.

Shimoliy Hindiston, Xuroson va Movarounnahrning ilm-fan, ta'lim sohasida juda ko'p ishlarni yaratdi. Ayniqsa, uning tabiiy-ilmiy (fizika, astronomiya, tibbiyot va boshqalar) bilimlarga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Xondamirning ijodiga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, u o'z asarlarida, XV – XVI asrlarda bu fanlarning qanday darajada ekanligini baholab bergan.

Xondamir asli o'zi tarixchi bo'lsa-da, o'z davrida tabiiy – fanlarga ham katta hissa qo'shgan. Uning asarlarini o'rganish hozirgi kunda ham to'xtab qolgani yo'q. Masalan, uning “Makorim ul-axloq” kitobida uning biografiyasi va hayoti, ijodi, Movarounnahr, Xurosonning tarixi, madaniyati va u yerdagi ilm-fan ravnaqi batafsil ta'kidlab o'tilgan. Uning barcha sakkiz asarida shu kabilar joy olgan. Xondamir o'zining asarlarida juda ko'plab tarixchilarning (Mavlono Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiy, Mavlono Mu'iniddin Muhammad Isfizoriy, Amir Muhammad Hovand(uning bobosi ota tomondan)va boshqalar) asarlari haqida so'z yuritilgan.² Xondamirning asarlarida astronomiya, fizika, tibbiyot haqidagi bilimlarning rivojlanishi, bu sohada qalam tebratgan olimlar, ularning hayoti haqida mufassal to'xtalib o'tiladi.³ Shunday olimlardan biri Maxdum Mavlono Fasixiddin Muhammad an-Nizomiy (U 1513-1514 yillarda vafot etadi) hisoblanib, u ko'plab ilm sohalarini o'rganadi, Ixlosiya madrasasida tahsil olib, shu yerda dars bera boshlaydi. U ko'plab ilmlarni egallagan. Ayniqsa, tabiiy – ilmiy fanlarni egallagani bois, quyidagi uning astronomiyaga oid “Hoshiyo-yi Chag'miniy” (“Chag'miniyga batafsil sharhlar”)⁴, “Hoshiyo-yi sharh-i ashkol at-ta'sis” (“Asosiy dalil”larning batafsil sharhlari”)⁵, “Sharh-i bist bob usturlob” (“Astrolyabiya ilmlari haqida yigirma kitob”ga batafsil sharhlar”)⁶ va shu kabi asarlar orqali bilishimiz mumkin. Yuqorida aytilgan olimlardan tashqari Xondamir yana qo'shimcha qilib, astronomiya haqida batafsil xabar beruvchi mashhur olim Mavlono Kamoliddin

²Юсупова Д., Творческое наследие Хондамира как источник по истории культуры Центральной Азии XV – XVI вв. Т.: 2001. – С. 324.

³Юсупова Д.вв. Т.: 2001. – С. 324.

⁴Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag 'miniyy. “Al-mulaxxas fi -l xayyat”. Astronomiya bo'yicha qisqacha kitob. Bu kitob asosan sharhlardan iborat. Astronom va doktor. Xorazmda yashagan.

⁵Хондамир. Макаримул-ахлак. Кембриж. Изд. Khwandamir. Makarim ul-akhlaq. Fac, Ed. T. Qandjei. (Cambridge) Trustees of the E.T.W. Gibb Memorial, 1979. – L.165.

⁶Muhammad ibn Muhammad Abu Ja'far Nosiriddin at-Tusiy. “Bist bob dar ma'rifat asturlob” asariga sharhlar. XIII asrda yashab o'tgan fizik, astronom, matematik olim.

Husayn Al-Vo'iz Al-Koshifiy⁷ni ham alohida ta'kidlab o'tadi. Yana bir shunday ilm sohiblaridan biri bu Mavlono Kamoliddin Mas'ud Shirvoniy hisoblanib, "Hoshiyo-yi sharh-i hikmat al-ayn" ("Hikmat al-ayn"ga batafsil sharhlar)⁸asari muallifi hisoblanadi. Asarda astronomiya va fizikaga oid qismlar bo'lib, bu kabi fikrlarni Xondamir o'zining "Makorim ul-axloq" asarida ham aytib o'tadi. Shuningdek, "Risola-yi dar ilmi farosat"("fiziogronomiya haqida traktat")⁹ asari muallifi Mavlono Abdurazzoq Kermoniy, "Hoshiyo-yi majul"("Majul"ga batafsil sharhlar")¹⁰ asari muallifi Xoja Abul-Qosim Abul-lays, "Hoshiyo-yi miftax" ("Kalit"ga batafsil sharhlar") va "Hoshiyo-yi talvix" ("Talvix"ga batafsil sharhlar")¹¹ asari muallifi Xoja Hovand Abul-lays haqida va ularning asarlari to'g'risida Xondamir tomonidan muhim ma'lumotlar beriladi. Bu davrda shuningdek, tibbiyot ilmi nihoyatda ravnaq topadi. Ayniqsa, Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylarning bu yerdagi o'rni beqiyosdir. Xondamirning yozishicha, Alisher Navoiy Hirot shahrida juda ko'pshifoxonalarqurdirilgan¹², ular orasida eng mashhuri "Dor ush-shifo"hisoblanadi. Bu maskan ham shifoxona, ham ilm dargohi bo'lib xizmat qilgan. Xondamirning xabar berishicha, Bobir va Humoyun davrida Hindistondan ko'plab tib ilmi namoyandalari bu yerga taklif etilgan¹³. Bu olimlar bemorlarni davolabgina qolmasdan, arab va fors tillarida tib ilmiga oid asarlar yozishgan¹⁴. Masalan, Mavlono G'iyosiddin Muhammad arab tilida yozilgan asarlarga batafsil sharhlar yozgan¹⁵.

Xondamir tib ilmi namoyondalarining ba'zilarini ham aytib o'tgan. Masalan, Mavlono Muhammad Mu'in "Dorush-shifo"da xizmat qilgan. Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqaroga yaqin tanish inson bo'lgan. Sulton Husayn

⁷Хондамир. Макаримул-ахлак. Кембриж. Изд. Khwandamir. Makarim ul-akhlaq. Fac, Ed. T. Qandjei. (Cambridge) Trustees of the E.T.W. Gibb Memorial, 1979. – L.165.

⁸Юсупова Д.Творческое наследие Хондамира как источник по истории культуры Центральной Азии XV – XVI вв. Т.: 2001. – С. 324.

⁹Xondamir. Xulosatul-axbor. O'zFA. SH.I. № 2209. L. – B. 483

¹⁰O'sha yerda

¹¹O'sha yerda

¹²O'sha yerda

¹³O'sha yerda

¹⁴ Xondamir. Xulosat ul-axbor. O'z FA. SH.I. № 2209. L. – B. 483.

¹⁵Юсупова Д.Творческое наследие Хондамира как источник по истории культуры Центральной Азии XV – XVI вв. Т.: 2001. – С. 324.

Boyqaro haramida tabiblik qilgan.

Mavlono Qutbiddin Muhammad Odam “Dorush-shifo”da davolash kursidan ta’lim bergan va shu bo’yicha tabiblik qilgan.

Mavlono G’iyosiddin Muhammad ibn mavlono Jaloliddin tabib ham tib ilmining buyuk namoyondasi edi. U tib ilmiga oid ko’plab asarlar yozgan. Masalan, “Mualjat ila’i” asariga sharh, “Hoshiyo-yi sharh-i mujoz Mavlono Nafisiy” (Mavlono Nafisiyning “Sharh-i mujoz” asariga batafsil izohlar), “Sehr-i halol manzum (Sehrgarlik imkoniyatlari (ruxsat ma’nosida))” kabi o’ndan ortiq tibbiyotga oid ilmiy risolalar yozib qoldirgan.

Mavlono Darvishali tabibkasalliklarning oldini olish va ularning davolash usullarini o’rgangan. Shu yerda unga Ulyo Milkat og’oning mahdiysi¹⁶ kabi mudarrislik unvoni berilgan. U tabiblikdan tashqari shoirlik bilan ham shug’ullangan va mu’ammo janrida ijod qilgan.

Mavlono Kamoliddin Mas’ud Shirvoniy ham tib ilmiga katta hissa qo’shgan bo’lib, bir necha yillar davomida Gavharshodbegim, Shohruxning “Ixlosiya” va G’iyosiya madrasalarida tib ilmidan ma’ruzalar o’qigan. Uning qalamiga tegishli asarlari “Hoshiyo-yi sharh-i Hikmat al-Ayn” va “Risola” (Traktat”) hisoblanadi.

Mavlono Masihiddin Habibulloh Mavlono Izoyiddin Husayn tabibning jiyanini hisoblangan. U Sulton Abulqosim Bobir va Sulton Abu Said mirzo hukmronligi davrida saroy tabibi bo’lgan. Hirot hukmronligi Sulton Husaynga o’tgandan keyin saroy qoshida tashkil etilgan dargohda tib kasalliklari va ularning davolash usullarini o’rgangan.

Mavlono Nizomiddin Abdalhay tabib ham Alisher Navoiyning “Dor ush-shifo”sida kasalliklarni davolash bilan shug’ullangan. U Xoja Nosiriddin Ubaydulloh¹⁷ning kasalligini topib, uni davolagan. Alisher Navoiy taklifi bilan Hirotga kelib, tib ilmidan dars bera boshlagan. Xondamirning yozishicha, u milodiy 1500-yil 20-23 dekabrda (hijriy 906-yil jumada avval oyi oxirida) Sulton

¹⁶Milkat og’o. Xizr Og’lonning qizi. Avval boshida Amir Temurning o’g’li Umarshayxga berilgan. Bu nikohdan ikki o’g’il – Mirzo Iskandar va Mirzo Boyqaro tug’ilgan. Keyin Shohruxga uzatilgan. Bu nikohdan Suyurg’atmish o’g’lon dunyoga kelgan.

¹⁷Xondamir. Xulosat ul-axbor. O’zFA. SH.Q.M. № 2209. L. – B. 483.

Husayn Boyqaro Astrobodga hujum qilganda jarohat oladi va Mavlono Nizomiddin Abdalhay tabib uning hayotini saqlab qoladi¹⁸.

“Humoyunnoma”da Xondamir shunday deydi: “Mavlono Yusuf Tabibiy – Bobir va Humoyunning shaxsiy tabibi hisoblangan”. U ham tib ilmidan tashqari she’riyat bilan ham shug’ullangan. Uning asarlari to‘plami “Favoid al-ahyor”(Yaxshi odamlarga pandnoma)da yig‘ilgan. Xondamir asarlaridagi tabiblar haqidagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ular ham o’sha davrda tib ilmi tarixi bilan birgalikda boshqa sohalar bilan ham shug’ullanishgan. Uning ta’kidlashicha, Navoiyning so‘nggi kunlarida tabiblar unga nisbatan ko‘plab muolajalar qilishgan. U yana ta’kidlaydiki, o’sha davrda tez uchrab turadigan kasalliklar, ularning sabablari aniqlab chiqilgan. Masalan, isxal (dizenteriya¹⁹), su al-kuniya (hazm qilish muammolari²⁰), sakta (insult²¹)va kasalliklarning sabablari,ularning davolash yo‘llari aniqlangan.

Maqolamizning so‘ngida xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, uzoq o‘tmishda yaratilgan barcha bilimlar, nafaqat bu tabiiy – ilmiy bilimlar bo‘lsin, hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan kelmoqda. Shuning uchun tarixiy ilmiy merosimizdan yetarli foydalanishimiz, va albatta, uni ko‘z qorachig‘imizdek asrab avaylab, kelajak avlodga yetkazishimiz kerak. Xondamir tomonidan yaratilgan bu ilmiy – meros juda katta boylik va uni o‘rganish bundan keyin ham to‘xtab qolmaydi, degan umiddamiz.

¹⁸Юсупова Д.Творческое наследие Хондамира как источник по истории культуры Центральной Азии XV – XVI вв. Т.: 2001. – С. 324.

¹⁹ Хондамир. Хабиб ус-сияр. Изд. Джалал Ад-Дина Хумайи. Т. IV. – С. 343. Дисс. – С. 148.

²⁰О Йусуфи и его медицинских трудах. Hidoyat Husayn. Предисловие, примечания// Источники. Хондамир

²¹Ибн Сина. Канон. Т.III. – С. 168. О болезни и смерти Навои.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Гиёсиддин бинни Хумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. –Тошкент. Ўздавнашр. 1941. – Б. 1288.
2. Гиёсиддин бинни Хумомиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. (Яхши хулқлар) Форсчадан М.Фахриддинов, П.Шамсиев таржимаси. Сўз боши – Иззат Султон. Тошкент. Бадий адабиёт. 1967. – Б. 1290
3. Б.Аҳмедов. Хондамир. Гулистон. – 1976. – 6 сон. – Б. 26
4. Б.Аҳмедов. Хондамир. Тошкент. Фан. –1965. – Б. 54
5. М.Хасаний., Каримова. С., Навоий даври табобати. Тошкент. Ибн Сино, 1991. – Б. 125
6. Б.Аҳмедов., Вопросы обоснования геометрии на средневековом Востоке: Авто.реф.дис. к.физ.мат. наук. Тошкент. 1962. – С. 24
7. Б.Аҳмедов., Геометрический трактат Шамсиддин Самарканди (XIII в.) Сер.физ-мат.наук. Т., 1969. – С. 127
8. Бартольд В.В., Улугбек и его время // Сочинения. Т. VIII – М., 1973. – С.97
9. Каримов У.И., Словарь медицинских терминов Абу Мансура Ал-Кумри// Материалы по истории культуры и истории науки народов Средней Азии. – Ташкент. – С.115
10. Матвиевская Г.П., Математические и астрономические рукописи Института востоковедения АН РУз.// Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем Востоке. – Ташкент, 1972. – С. 200
11. Матвиевская Г.П., Тиллашев Х., Математические и астрономические рукописи учёных Средней Азии. X – XVIII вв. Ташкент. Фан, 1973. – С. 147
12. Миклухо–Маклай Н.Д., Хондамир и «Записки» Бабура. // Тюрколог. Исслед. – М. – Л. 1963. – С. 249

13. Юсупова Д., Вопросы градостроительства в трудах Хондамира//Позднефеодальный город Средней Азии. – Ташкент. 1990. – С.162
14. Юсупова Д., Изучение «Макарим ул-ахлак» в СССР и за рубежом. // Бартольдские чтения 1990: Тез.док.сооб. – М. 1990. – С. 75
15. Юсупова Д. «Хуласат ул-ахбар» Гийас Ад-Дина Хондамира как источник по истории культуры Мавераннахр и Хорасана XV – XVI вв. // Бартольдские чтения 1987: Тез.док.сооб. – М. 1987. – С. 184
16. Абдалгаффар Байани. Мукаддима, примечания, исправления// Источники. Хондамир. Макарим ул-ахлак. Кабулс. Изд.М. – Л. 1963.
17. Хидайат Хусейн., Канун-иХумайуни//Источники. Хондамир. Предисловие, примечания М. – Л. 1963
18. Beveridge. De. Bruijn. Khwandamir. – H. Beveridge. – J.T.P, De. Bruijn. Khwandamir. The Encyclopedia of Islam. New Edition. V-IV . Leiden, 1977. – P. 1022
19. Gandjei., Introduction, Index // Хондамир. Макаримул-ахлак. Кембриж. Изд. Хондамир. Канун-иХумайуни. Анг.пер. (Qanuni Humavuni also known as Humavun nama) of Khwandamir. Translated with explanatory notes by Baini Prasha. Calcutta. 1940. – P. 92
20. T. Qandjei., Хондамир. Макаримул-ахлак. // Khwandamir. Makarim ul-akhlaq. Fac, Ed. (Cambridge) Trustees of the E.T.W. Gibb Memorial, 1979. – L., Кембриж. Изд. 1979.– P.165-174.